

**Sadullayeva Farida Farxod qizi**

*Termiz Davlat Universiteti*

*Yuridik Fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi sud tizimidagi ma’muriy sudlarning tutgan o‘rni, ularning huquqiy asoslari va funksional vazifalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Ma’muriy sudlar davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida vujudga keladigan huquqiy nizolarni hal etishda qanday rol o‘ynashi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oxirgi yillarda olib borilgan sud-huquq islohotlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltirib o‘tilgan. Maqola huquqiy davlat qurilishi, sud tizimining demokratik tamoyillari va qonun ustuvorligini ta’minlashda ma’muriy sudlarning beqiyos o‘rni borligini asoslab beradi.

**Kalit so’zlar:** Demokratik, islohot, mexanizm, yurisdiksiya, protsess, huquqiy ong, da’vo.

## МЕСТО АДМИНИСТРАТИВНЫХ СУДОВ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ

**Аннотация:** В статье дается научно-теоретический анализ роли административных судов в судебной системе Республики Узбекистан, их правовых основ и функциональных задач. Подчеркивается роль административных судов в разрешении правовых споров между государственными органами и гражданами, их значение в защите прав и свобод граждан. В нем также рассматриваются проведенные за последние годы судебно-правовые реформы, существующие проблемы и предложения по их устранению. В статье обосновывается неоценимая роль административных судов в построении правового государства, обеспечении демократических принципов судебной системы и верховенства закона.

**Ключевые слова:** Демократический, реформа, механизм, юрисдикция, процесс, правосознание, судебный процесс.

## THE PLACE OF ADMINISTRATIVE COURTS IN THE JUDICIAL SYSTEM

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of administrative courts in the judicial system of the Republic of Uzbekistan, their legal foundations and functional tasks. The role of administrative courts in resolving legal disputes between state bodies and citizens, their importance in protecting the rights and

freedoms of citizens are highlighted. The judicial and legal reforms carried out in recent years, existing problems and proposals for their elimination are also presented. The article substantiates the incomparable role of administrative courts in building a legal state, ensuring the democratic principles of the judicial system and the rule of law.

**Keywords:** Democratic, reform, mechanism, jurisdiction, process, legal consciousness, lawsuit.

Demokratik jamiyatda huquqiy davlat qurilishi jarayonida sud hokimiyatining mustaqilligi va uning samarali faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida ma’muriy sudlarning joriy etilishi va ularning faoliyat mexanizmini takomillashtirish masalasi alohida e’tiborga loyiqdir. Ma’muriy sudlar davlat hokimiyati organlari, mahalliy boshqaruv idoralari, mansabdar shaxslar bilan fuqarolar o‘rtasidagi huquqiy nizolarni hal qilish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Ular zamonaviy huquqiy davlatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Ma’muriy sudlar — bu davlat organlari va fuqarolar, shuningdek, yuridik shaxslar o‘rtasida vujudga kelgan ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko‘rib chiqadigan maxsus sud organlaridir. O‘zbekiston Respublikasining 25.01.2018 yildagi “Ma’muriy sud ishlarini yuritish tog’risidagi kodeks” ushbu sudlarning huquqiy asoslarini belgilab bergen. Mazkur qonun hujjatlarida ma’muriy sudlar faoliyatining prinsiplari, yurisdiksiyasi, protsessual tartiblari va sudlov ishi yuritish mezonlari aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Ma’muriy sudlar fuqarolarning davlat hokimiyati organlari, ularning mansabdar shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar, harakatlar (harakatsizliklar) ustidan bergen shikoyatlarini ko‘rib chiqadi. Bu jarayonda sud mustaqil ravishda holatni o‘rganib, faqat qonun asosida xulosa chiqaradi. Shu jihatdan, ma’muriy sudlar fuqarolarning davlat tuzilmalari oldidagi huquqiy tengligini ta’minlovchi kuchli vosita hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 131-moddasiga muvofiq, mamlakatda yagona sud tizimi mavjud bo‘lib, u Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va boshqa qonun bilan tashkil etilgan sudlardan iborat. Ma’muriy sudlar ushbu tizimda mustaqil yo‘nalish sifatida faoliyat yuritadi. Ular fuqaroviylar, jinoyat va iqtisodiy ishlarni ko‘rvuchi sudlardan farqli ravishda, faqat davlat boshqaruvi organlari va fuqarolar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarga doir ishlarni hal etishga ixtisoslashgan.

Ma’muriy sudlarning asosiy vazifasi — fuqarolarning davlat idoralari bilan bog‘liq nizolari yuzasidan odil sudlovni amalga oshirishdir. Bunda quyidagi holatlar ma’muriy sudlar yurisdiksiyasiga kiradi:

- mansabdar shaxslar va davlat organlarining noqonuniy qaror, harakat yoki harakatsizligidan norozi bo‘lgan fuqarolarning arizalari;
- davlat xizmatiga oid nizolar;
- soliq, bojxona, ekologiya va boshqa ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan da’volar;
- saylov va referendum huquqlariga oid nizolar va boshqalar.

Ma’muriy sudlar fuqarolarning davlat idoralari oldida ojiz emasligini, ularning har qanday noqonuniy qaror ustidan qonuniy tartibda shikoyat qilish huquqiga egaligini amalda isbotlaydi.

#### Islohotlar va zamonaviy rivojlanish bosqichlari

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2017-yildan boshlab sud-huquq sohasida tub islohotlar boshlab yuborildi. Sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi va ularning barchasi ma’muriy sudalr faoliyatida sezilarli o’zgarishga sabab bo’ldi.

Shu bilan birga, ma’muriy sudlar faoliyatida muayyan muammolar ham mavjud. Avvalo, ayrim hollarda fuqarolar ma’muriy sndlarga murojaat qilish imkoniyatlari haqida yetarli ma’lumotga ega emas. Shuningdek, ba’zi hududlarda sudyalarning malaka va tajribasi yetarli darajada emasligi, yurisdiksiya masalasida aniqlik yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud.

#### **Mazkur muammolarni hal qilish uchun quyidagicha takliflar mavjud:**

1. Aholining huquqiy ongini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali ma’muriy sudlar haqida keng tushuntirish ishlarini olib borish;
2. Sudyalar malakasini oshirish, ular uchun doimiy treninglar, o‘quv kurslari va xalqaro tajriba almashinuvlarini yo‘lga qo‘yish;
3. Sudlov tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish, ayniqsa elektron da’vo arizalarini ko‘rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish;
4. Ma’muriy sudlar faoliyatiga oid qonun hujjatlarini yanada aniq va mukammal holga keltirish.

Xulosa qiladigan bo’lsak, ma’muriy sudlar zamonaviy huquqiy davlatning ajralmas bo‘g‘ini sifatida faoliyat yuritmoqda. Ular orqali fuqarolar va yuridik shaxslar davlat organlari ustidan qonuniy tartibda shikoyat qilishi, o‘z huquqlarini tiklashi mumkin. Bu esa jamiyatdaadolat, qonun ustuvorligi va fuqarolik ishonchini mustahkamlaydi. Shuning uchun ham ma’muriy sndlarning sud tizimidagi o‘rnini beqiyos bo‘lib, ularning samarali faoliyat yuritishi mamlakatimizda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 y., amaldagi tahrir)

2. “Ma’muriy sudlar to‘g‘risida”gi Qonun (2016-yil 30-dekabr, 2017-yil 1-iyuldan kuchga kirgan)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari, xususan: 2017-yildan keyingi sud-huquq islohotlariga oid hujjatlar.
4. “*Sud-huquq sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha konsepsiya*” (2017–2021 yillar).
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy ma’lumotlari, sud statistikasi va tahliliy sharhlari.
6. Huquqshunos olimlar va amaliyotchilarining sud tizimi, ma’muriy yurisdiksiya va huquqiy islohotlar bo‘yicha maqolalari.